

O'ZBEK HAMDA INGLIZ TILIDAGI MAQOLLARNING O'ZIGA XOSLIGI

Xo'jabekova Ramzida O'ktam qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi

O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali talabasi

khujabekovaar@gmail.com

Sindorov Lutfulla Kurolovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi

O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali dotsenti

lutfulla1803@mail.ru +998933751882

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15501345>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek va ingliz maqollarining o'ziga xos xususiyatlari, lingvistik tuzilishi, madaniy-milliy xususiyatlari, shuningdek, ularning tarjima qilinishidagi qiyinchiliklar tahlil qilinadi. Maqollar xalqlarning madaniy merosini aks ettiruvchi muhim og'zaki ijod namunalari. O'zbek maqollari ko'pincha jamoaviylik va oila sharafiga ta'kidlash bilan ajralib turadi, ingliz maqollarida esa mustaqillik va individualizm kabi temalar ko'proq uchraydi. Maqollar tarjima qilishda ma'noni saqlab qolish muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: maqollar, madaniyat, xalq og'zaki ijodi, tarbiyaviy ahamiyat, folklorshunoslar, ta'lim, tahlil.

Annotation: This article analyzes the unique features, linguistic structures, and cultural-national characteristics of Uzbek and English proverbs, as well as the challenges involved in translating them. Proverbs are important examples of oral folklore that reflect the cultural heritage of nations. Uzbek proverbs often emphasize collectivism and the honor of family, while English proverbs tend to focus more on themes such as independence and individualism. Preserving the meaning is crucial when translating proverbs.

Keywords: proverbs, culture, folk oral creativity, educational value, folklorists, education, analysis.

Аннотация: В статье анализируются уникальные особенности, языковые структуры и культурно-национальные характеристики узбекских и английских пословиц, а также трудности, связанные с их переводом. Пословицы являются важными образцами устного народного творчества, отражающими культурное наследие народов. Узбекские пословицы часто подчеркивают коллективизм и честь семьи, в то время как английские пословицы, как правило, больше сосредоточены на таких темах, как независимость и индивидуализм. Сохранение смысла имеет решающее значение при переводе пословиц.

Ключевые слова: пословицы, культура, устное народное творчество, воспитательная ценность, фольклористы, образование, анализ.

Maqol – xalq og'zaki ijodining kichik hajmli, ammo mazmunan nihoyatda chuqur janrlaridan biridir. U hayotiy tajriba, hikmat, nasihat, kuzatuv, axloqiy qoidalar, mehnat va insoniy munosabatlar haqidagi xalq donishmandligini ifoda etadi. Odatda qisqa, obrazli, ohangdor, oson yodda qoladigan shaklda bo'ladi.

Har bir millat va elatning o'zligini, tarixi, madaniyati va milliy qadriyatlarini ifodalovchi omillardan biri xalq og'zaki ijodidir. Xalq og'zaki ijodi asrlar davomida sayqallanib, xalq orasida

aytilib, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan ma'naviy meroslardan biridir. Xalq og'zaki ijodining takrorlanmas janrlaridan biri bu maqoldir.

Insoniyatning shu kungacha bosib o'tgan murakkab rivojlanish yo'li ezgu maqsadlarga faqat va faqat uzluksiz ma'naviy tarbiya bilangina erishish mumkinligini isbotlab kelgan. Yosh avlod qalbi, didi, tasavvur va tafakkurini tarbiyalashda milliy merosimiz xazinasi, xususan, badiiy adabiyot muhim vositadir.

Maqollar xalq donishmandligining nodir namunalari sifati og'zaki badiiy ijodning keng tarqalgan mustaqil janridir. Shartli ravishda ularni xalqona odob-axloq qoidalari deb atash mumkin. Zero, maqollar xalqning asrlar davomida hayotiy tajribalarida sinalgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy, axloqiy-falsafiy qarashlarining g'oyat ixcham, lo'nda, siqiq va obrazli ifodasidan tug'ilgan hodisadir. Maqollar maxsus ijod qilinmaydi, balki ma'lum bir sharoit taqozosi tufayli sinalgan hayotiy tajribadan tug'iladigan xulosaning axloqiy bahosi sifatidagi hukm bo'lib yuzaga keladi.

O'zbek maqollari mavzusiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

O'zbek maqollari asrlar davomida shakllanib kelgan. Ular qadimiy turkiy davr

Mavzu:	Maqol:
Mehnat	Mehnat, mehnatning tagi rohat
Do'stlik	Yaxshi do'st yomon kunda bilinadi.
Aql va sabr	Sabrning tagi sariq oltin
Vaqt	Vaqt ketdi – baxt ketdi
Yolg'on va rostlik	Rostni aytgan shon yutar, Yolg'on aytgan qon yutar
Oila va tarbiya	Oila tinch – yurt tinch
Halollik	Halol ishla, halol tishla
Tajriba	Ko'pni ko'rgan ko'p biladi.

maqollaridan tortib, islom davri, Amir Temur zamonasi, jadidlar harakati va zamonaviy davrgacha bo'lgan turmush tarzi, ijtimoiy-siyosiy voqealar, urf-odatlar asosida boyib borgan. Alisher Navoiy, Ogahiy, Furqat, Abdulla Qodiriy, Abdulla Oripov kabi adiblar maqollarni o'z asarlarida faol qo'llagan. Maqollar asar ifodasini boyitadi, xalqona ruh bag'ishlaydi. O'zbek maqollari boshqa xalqlar maqollari bilan o'xshash va farqli jihatlariga ega. Masalan, o'zbekcha "Tilingni tiyla, boshing omon bo'ladi" degan maqol ingliz tilidagi "Think before you speak" (Gapirishdan oldin o'yla) degan maqol bilan mazmun jihatdan yaqin. Bugungi kunda maqollar ta'limda, jurnalistikada, siyosatda, ijtimoiy tarmoqlarda keng qo'llaniladi. Ular xalq donishmandligini saqlab qolish, ma'naviyatni boyitish va yoshlarga tarbiya berishda muhim manba hisoblanadi.

O'zbek xalq og'zaki ijodida ham, ingliz xalq og'zaki ijodida ham bu ikki xalq ma'naviyati, tarixi va qadriyatlarini o'zida mujassamlashtirgan namunalardan biri bu xalq maqollaridir. Har bir tirik jon borki, yoshlik chog'idan maqol va matallarni eshitib katta bo'lgan, kundalik hayotida ularga duch kelib, turli xil xulosa va fikrlarga ega bo'lgan. Shu jihatdan shuni aytish joizki, maqollar har bir millat hayotida o'z o'rniga ega bo'lib, xalqning turmush tarziga ko'ra o'ziga xoslik kasb etadi. Maqollar yillar davomida tildan tilga o'tib keluvchi komillik, odob, saxiylik, qobillik va jamiki yaxshi amallarga undovchi ezgu fikrlar majmuidir.

O'zbek maqollarida tazod, istiora, tajnis kabi badiiy san'at vositalari keng qo'llaniladi. Masalan, "Yaxshilik qil, darig' tutma" maqolida tazod san'ati orqali yaxshilik va yomonlik qarama-qarshiligi ifodalanadi. Ingliz maqollarida esa metafora va qisqalik asosiy stilistik

xususiyatlar hisoblanadi, masalan, “Actions speak louder than words” (Amallar soʻzlardan balandroq gapiradi) maqolida metafora orqali fikr ifodalanadi [1.1b].

Ingliz maqollarining mavzulari:

Topic:	Proverb:
Work and effort	No pain, no gain
Friendship	A friend in need is a friend indeed
Wisdom and patience	Look before you leap
Time and life	Time is money
Honesty	Honesty is the best policy
Experience	Experience is the best teacher
Consequences	What goes around, comes around

Ingliz maqollarining baʼzilarining ildizi qadimiy Anglo-sakson davriga borib taqaladi. Ayrimlari Bibliya, qadimgi yunon falsafasi yoki lotin iboralaridan kelib chiqqan. Shuningdek, mashhur yozuvchilar – Uilyam Shekspir, Jeffri Choser kabi ijodkorlar maqollarni ommalashtirgan. Maqollar ingliz adabiyotining ajralmas qismi hisoblanadi. Ular romanlar, sheʼrlar, dramaturgik asarlarda fikrni boyitish, chuqurroq maʼno berish uchun ishlatiladi. Ayniqsa Shekspir asarlarida maqollardan keng foydalanilgan.

Bugungi kunda ingliz maqollarining ayrimlari oʻzgarib, hazilomuz yoki soddalashtirilgan shakllarda ham ishlatilmoqda. Masalan: “Keep calm and carry on” – “Tinchlan va davom et”. “When life gives you lemons, make lemonade”. – “Hayot limon bersa, limonad tayyorla” (Yaxshi tomonni koʻr).

Ingliz tilini oʻrganayotganlar uchun maqollar:

1. Lugʻat boyligini oshiradi.
2. Iboraviy nutqni rivojlantiradi.
3. Madaniyat va tarix haqida tushuncha beradi.
4. Oʻz fikrini chuqur, madaniyatli ifoda etishga yordam beradi.

Ingliz olimlari tomonidan maqollarning har xil xususiyatlari koʻrib chiqilgan va takliflar keltirilgan. Ingliz maqollari ustida koʻplab izlanishlar olib borgan olimlar sifatida Honik, Mayder, Norik, Teylor, Aroralarni ayta olamiz. Ular maqollarni oʻziga xos eng muhim jihatlarini fanda isbotlab, asosan, ulardagi strukturaviy tuzulish, qanday badiiy vositalarning ishlatilishi, ijtimoiy hayotdagi oʻrni kabi masalalarga eʼtibor qaratganlar va ularni oʻz asarlarida berib oʻtganlar. Ushbu sohaga juda katta hissa qoʻshgan olimlardan biri folklorshunos Mayderning xizmatlarini alohida taʼkidlash lozim. Chunki u maqollar ustida juda koʻplab izlanishlar olib borgan va nazariy asarlar yozgan olimlardan biridir.

Honek maqollarni jamiyatning barcha sohasida folklorchi olimlardan tortib to siyosatchilar, hatto huquqshunoslar ishida ham ahamiyatga ega ekanligi aytadi. Shunga koʻra maqollarning turli xil maqsad va vazifalari, istiqbollari, taxmin va farazlari, uslublari va nazariy xulosalari mavjudligini taʼkidlaydi. Uning fikricha, maqollar aniq va tugal nazariyaga ega emas. Lekin Honek oʻzining “A proverb in mind: the cognitive science of proverbial wit and wisdom” asarida maqollarning oʻziga xos 7 ta muhim xususiyatini koʻrsatadi: Personal: The proverb is treated from a subjective viewpoint based purely on personal experience and understanding. Formal: This is a scientific approach that primarily uses the methods and concepts of linguistics, logic, and semiotics to define, classify and semiotics to define, classify and otherwise analyze proverbs.

Religious: Religious teaching and wisdom are examined in texts.

Literary: Proverbs in prose and poetry re analyzed in terms of their literary value and what they tell us about the writer, their times, and so forth.

Practical: The many uses of the proverb in intelligence testing, psychotherapy and other areas are examined.

Cultural: This is a scientific approach to the proverb that treats it as a multifunction from of folk literature that arises from and is embedded in a sociocultural context.

Cognitive: this is a scientific approach based on cognitive science that attempts to explain how individuals use and understand proverbs.

O'zbek maqollarida kollektivizm, oilaviy qadriyatlar va diniy e'tiqodlar muhim o'rin tutadi. Masalan, "Ota-onangni rizo qil, Xudo rizo bo'lur" maqoli oilaviy qadriyatlarni targ'ib qiladi. Ingliz maqollarida esa shaxsiy erkinlik, mustaqillik va pragmatik yondashuvlar ko'proq uchraydi, masalan, "God helps those who help themselves" (Xudo o'ziga yordam berganlarga yordam beradi) maqoli shaxsiy tashabbusni rag'batlantiradi [2.4b].

Maqol va iboralarni tarjima qilish.

Eng ommalashgan usullar quyidagilar: 1) so'zma-so'z tarjima, 2) monand (analog) tarjima, 3) tasviriy tarjima.

Bu usullar hozirgacha tarjimonlar tomonidan samarali qo'llanilib kelinmoqda. **So'zma-so'z tarjima:** Maqol va iboralardagi so'zlar qanday bo'lsa shu holda tarjima qilinsa, bu so'zma-so'z tarjima hisoblanadi.

Monand (analog) tarjima: Maqol va iboraning tarjima qilinayotgan tildagi shu ma'noga mos ekvivalentini topish.

Tasviriy tarjima: So'zma-so'z yoki analog tarjima qilish imkoni bo'lmaganda tarjima qilinayotgan maqol va iboraning ma'nosini tasvirlash usuli orqali tarjima qilish. Maqol va iboralarning tarjimasida Ye.Nidaning shakliy va dinamik ekvivalentlik nazariyasi ham bu borada amalga oshirilgan mashhur ilmiy ishlardan biridir. Shakliy ekvivalentlik bu so'zma-so'z tarjima singari sintaktik so'z tanlash va idiomatik birikmalarni saqlab qolishni maqsad qiladi. Va asosan asliyat matn strukturasi, grammatik jihatdan so'zlarning qo'llanilishi va original matnga eng mos tushadigan tarjima chiqarib beradi. Bundan tarjimaning tarjima qilinayotgan tilda tabiiy bo'lmagan yoki g'aliz bo'lishi e'tiborga olinmaydi. Bunga teskari ravishda, dinamik ekvivalentlikda bir xil ma'no va mazmunni tarjima bag'ishlangan auditoriyaga yetkazib berish maqsad qilinadi. Bunda maqol va iboralar tarkibida sintaktik va grammatik o'zgarishlar bo'lishi kuzatiladi.

Quyida 8 ta maqol va iboraning ham shakliy, ham dinamik ekvivalentlik asosidagi tarjimalarni keltirib o'tiladi va ular orasida eng maqbul tarjima usuli taklif qilinadi:

1. Birds of a feather flock together

Shakliy ekvivalentlik: bir qanotli qushlar birga uchadilar.

Dinamik ekvivalentlik: teng tengi bilan, tezak qopi bilan.

Yuqoridagi tarjimalar orasida asliyat tildagi ma'noni tushunarli va aniq qilib yetkazib berayotgan usul bu-dinamik ekvivalentlikdir.

2. Let sleeping dogs lie.

Shakliy ekvivalentlik: uxlayotgan itlarni uyg'otma.

Dinamik ekvivalentlik: yopiqlik qozon yopiqligicha qolsin.

O'zbek tili maqollari orasida shakliy ekvivalentlik usulida qilingan tarjimadagi ibora yoki maqol bo'lmaganligi uchun bu usulda tarjima qilish xato, ammo dinamik ekvivalent o'zbek auditoriyasi uchun tushunarli bo'ladi.

4. A friend in need is a friend indeed.

Shakliy ekvivalentlik: qiyinchilikdagi do'st haqiqiy do'st.

Dinamik ekvivalentlik: chin do'st mashaqqatda bilinadi.

Ikki tarjima usuli ham ma'noga ega va o'quvchi tomonidan anglashilishiga qaramasdan dinamik usuldagi tarjima, asosan ko'proq qo'llaniladi.

5. Out of sight, out of mind.

Shakliy ekvivalentlik: ko'zdan yiroq, esdan ham yiroq.

Dinamik ekvivalentlik: ko'zdan yiroq, ko'ngildan yiroq.

Bu maqolda ham yuqoridagi kabi ikki tarjima ham tushunarli va asliyat ma'noniyoritib bergan, ammo dinamik ekvivalent omma orasida keng tarqagan.

6. Look before you leap.

Shakliy ekvivalentlik: sakrashdan oldin qara.

Dinamik ekvivalentlik: yeti o'lchab bir kes.

Bu maqolda esa shakliy ekvivalentdagi kabi ibora yoki maqol o'zbek tilida mavjud bo'lmaganidan yanglish tushunilishi xavfi bor, shu bois dinamik ekvivalentlik usulida tarjima qilgan ma'quldir.

7. Absence makes the heart grow fonder.

Shakliy ekvivalentlik: yo'qlik qalbni muhabbatliroq qiladi.

Dinamik ekvivalentlik: borida qadrla, yo'g'ida qidirma.

Ikki usuldagi tarjima ham ma'noga ega, ammo shakliy ekvivalent o'zbek tili o'quvchi yoki tinglovchilari uchun g'aliz bo'lishi bilan bir qatorda o'zining ta'sir kuchiga ham ega emasdir. Lekin dinamik ekvivalent diqqatni jalb qila olishi va ta'sir kuchini saqlab qolgani bilan maqbul tarjima usuli hisoblanadi.

8. When the cat is away, the mice will play.

Shakliy ekvivalentlik: mushuk ketsa, sichqonlar o'ynaydi.

Dinamik ekvivalentlik: Sulaymon o'lib devlar qutuldi.

Shakliy ekvivalent tarjima usuli g'aliz va tushunish qiyin bo'lgani uchun bu maqolda ham dinamik ekvivalentlikdan foydalanish darkor.

Tarjimashunoslikdagi Muammolar Maqollarni tarjima qilishda ularning madaniy konteksti, semantik nozikliklari va stilistik xususiyatlarini inobatga olish zarur. Ba'zi maqollar to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinmaydi, balki ularning ekvivalentlari topiladi. Masalan, ingliz tilidagi "Don't count your chickens before they hatch" maqolining o'zbek tilidagi ekvivalenti "Tuxumdan jo'ja chiqmasdan sanama" bo'lishi mumkin [3, 11b].

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o'zbek xalq maqollari bu xalqlarning madaniy merosidir. Ularda ingliz va o'zbek xalqning barcha o'y - fikrlari, dunyoqarashi, turmush tarzi, fe'l - atvori va e'tiqodi aks etadi. Har bir millat o'ziga xos tavsiflarga ega ekan, bu ularning maqollariga ham ta'sir etmay qolmaydi. Hatto ayrim ingliz va o'zbek maqollardagi mavzular o'xshash bo'lsada, ulardagi obrazlar takrorlanmasligi bilan ajralib turadi. Aynan ana shu tasvirlar maqollardagi milliy bo'yodkorlikni ta'minlaydi. O'zbek va ingliz maqollari har ikki xalqning madaniyati, dunyoqarashi va hayotiy tajribasini aks ettiradi. Ularning semantik, stilistik va madaniy xususiyatlarini qiyosiy o'rganish tilshunoslik, tarjimashunoslik va madaniyatshunoslik

sohalarida muhim ahamiyatga ega. Maqollarni tarjima qilishda ularning madaniy konteksti va stilistik xususiyatlarini inobatga olish zarur.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To'layeva K.U., Panjiyeva N.N. (2022). *Comparative Analysis of Meaningful Proverbs in English and Uzbek Languages*. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 2(1), 119–121.
2. Makhsudova N.A., Bakirova Kh.B., Demirbilek M. (2024). *Comparative and Contrastive Analysis of the Peculiarities of the National Character in English and Uzbek Proverbs*. Pubmedia Jurnal Pendidikan Bahasa Inggris, 1(4), 9.
3. Arapov G.N. (2019). *Comparative Analysis Of Some English And Uzbek Proverbs*. International Journal of Research, 6(11).
4. Абдуллаева, М. Х., Башарова, Г. Г., & Рахматова, О. К. (2019). Преимущества индивидуального подхода в образовательном процессе. *Проблемы современной науки и образования*, (12-1 (145)), 88-90.

INNOVATIVE
ACADEMY